

Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirining
2023-yil " 1 " 10 dagi
349 -son buyrug'iga
2-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Yoshlar akademiyasi to'g'risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Yoshlar akademiyasi (keyingi o'rinnarda - Yoshlar akademiyasi deb ataladi) asosiy vazifalari, funksiyalari, huquq va majburiyatlarini, shuningdek, uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Yoshlar akademiyasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga hamda ushbu Nizomga amal qiladi.

3. Yoshlar akademiyasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligiga (keyingi o'rinnarda - Vazirlik deb ataladi) hisobot beradi va bo'ysunadi.

4. Yoshlar akademiyasi o'z faoliyatini davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, xorijiy va xalqaro hamda boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

5. Yoshlar akademiyasi rasmiy nomi:

a) davlat tilida:

to'liq nomi - O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Yoshlar akademiyasi;

qisqartirilgan nomi - Yoshlar akademiyasi;

b) rus tilida:

to'liq nomi - Молодежная академия при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан;

qisqartirilgan nomi - Молодежная академия;

c) ingliz tilida:

to'liq nomi - Youth academy under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan;

qisqartirilgan nomi - Youth Academy.

6. Yoshlar akademiyasiga o'zlarining innovatsion loyihalari, g'oyalalariga ega bo'lgan 40 yoshdan oshmagan olimlar, tadbirkorlar va iqtidorli yoshlar saralash asosida jamoa shaklida qabul qilinadi.

Yoshlar akademiyasi jamoa a'zolari Yoshlar akademiyasi a'zolari hisoblanadi.

2-bob. Asosiy tushuncha va atamalar

7. Yoshlar akademiyasi liderlari – Yoshlar akademiyasining oliy ta’lim muassasalaridagi, hududlardagi vakillari hisoblanadi.

Yoshlar akademiyasi assambleyasi – Yoshlar akademiyasi vazifalarini amalga oshirish va mavjud muammolarini hal etishga qaratilgan takliflar va yechimlar ishlab chiquvchi, shuningdek yoshlarni ilmiy-innovatsion faoliyatga keng jalb etish maqsadida tashkil etiladigan Yoshlar akademiyasi liderlaridan iborat organ.

Startap loyihalar – bu qonun bilan taqiqlanmagan turli yo‘nalishlardagi biznes bo‘lib, bozorga avval foydalanilmagan uslubda tovarlar yoki xizmatlar taqdim etishni ifodalaydi.

Innovatsion loyihalar – amalga oshirish muddati, infratuzilmasi, ijrochilar, moliyalashtirish manbasi va obyektiga ega innovatsiyani yaratish va ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar yig‘indisi.

Akselerator – faoliyati startap kompaniyalarga yordam berish, biznes jarayonlarini tezlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy institut. Akseleratorlar kompaniya biznes-modelini ishlab chiqishga, zarur kontaktlarga ega bo‘lishga va savdosini oshirishga yordam beradigan dasturni taklif qiladi.

Biznes-inkubatorlar – kichik va o‘rta biznesni yuritish malakalarini oshirish, tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish bilan shug‘ullanadigan ixtisoslashgan muassasa.

3-bob. Yoshlar akademiyasining asosiy vazifalari va funksiyalari

8. Quyidagilar Yoshlar akademiyasining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- iqtidorli va tashabbuskor yoshlar bo‘yicha yagona ma’lumotlar bazasini shakllantirish va muntazam yangilab borish hamda ularni mamlakatning yetakchi olimlari va ishbilarmonlari bilan hamkorligini ta’minlash;

- Oliy ta’lim muassasalaridagi iqtidorli yoshlarni aniqlash, innovatsion loyihalarini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash;

- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, ilmiy-tadqiqot va ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda yoshlarning ijodiy, intellektual va tadbirkorlik salohiyatini oshirish;

- iqtidorli yoshlarni rivojlangan xorijiy mamlakatlarning nufuzli ilmiy markazlari, universitetlari, texnoparklari va ishlab chiqarish korxonalarida malaka oshirishlariga ko‘maklashish;

- ilmiy-tadqiqotlarni bajarish ishtiyoqiga ega iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni olib borishlariga imkon yaratish, yangi avlod yosh olimlarini tayyorlash bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish;

- yosh olimlar tomonidan aniq vazifalarni hal etishga, ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori bo‘lgan ilg‘or texnologik ishlanmalarni ishlab chiqishga qulay sharoitlar yaratish;

- ilmiy-innovatsion akselerator va biznes-inkubatorlarni tashkil etish asosida tashabbuskor yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga yo‘naltirish;

- yoshlarning startap-loyihalarini xo‘jalik boshqaruvi organlari va davlat ulushi mavjud korxonalarini izchil rivojlantirish bo‘yicha zamon talablariga javob beradigan, tijoratlashtirish darajasi yuqori bo‘lgan mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqarishga yo‘naltirish;

- ilm-fan sohasida o‘z o‘mini topib borayotgan, kelajakda mamlakat ilm-fani nufuziga o‘z hissasini qo‘sha oladigan bo‘lajak akademiklar jamoalarini shakllantirib borish;

- xalqaro va mahalliy darajada e’tirof etilgan tashkilotlar, universitetlar, ilmiy markazlar bilan yaqindan aloqalar o‘matish, ularning olimlari va mutaxassislari ishtirokida mahorat darslari, treninglar, shuningdek, dolzarb ilmiy-innovatsion yo‘nalishlar bo‘yicha konferensiyalar, seminarlar va tanlovlardan o‘tkazish.

9. Yoshlar akademiyasi o‘ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarini amalga oshiradi:

a) iqtidorli va tashabbuskor yoshlar bo‘yicha yagona ma’lumotlar bazasini shakllantirish va muntazam yangilab borish hamda ularni mamlakatning yetakchi olimlari va ishbilarmonlari bilan hamkorligini ta’minlash bo‘yicha:

iqtidorli va tashabbuskor yoshlar bo‘yicha yagona ma’lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish bo‘yicha onlayn platformani (keyingi o‘rinlarda elektron baza deb ataladi) yuritadi;

yetakchi olimlari va ishbilarmonlari bilan hamkorlikda elektron bazani muntazam yangilab boradi;

Yoshlar akademiyasi a’zolarining takliflari asosida elektron bazani va uning yuritilishini takomillashtirib boradi;

iqtidorli va tashabbuskor yoshlarning g‘oyalari va startap loyihalarini elektron baza orqali qabul qilinishi va ko‘rib chiqilishini ta’minlaydi.

b) Oliy ta’lim muassasalaridagi iqtidorli yoshlarni aniqlash, innovatsion loyihalarini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha:

Yoshlar akademiyasi faoliyatini oliy ta’lim muassasalarida tashkil etish maqsadida oliy ta’lim muassasalari rahbarlari bilan birgalikda “Yoshlar akademiyasi lideri” tizimini yo‘lga qo‘yadi;

Respublikamizdagi eng faol Yoshlar akademiyasi liderlaridan iborat “Yoshlar akademiyasi assambleyasi” faoliyati tashkil etadi;

Oliy ta’lim muassasalarida doimiy ravishda Yoshlar akademiyasining tanlovlari va tadbiralarini tashkil etib boradi.

c) davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, ilmiy-tadqiqot va ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda yoshlarning ijodiy, intellektual va tadbirkorlik salohiyatini oshirish bo‘yicha:

vazirlik ko‘magida davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, ilmiy-tadqiqot va ta’lim muassasalari bilan hamkorlik o‘rnatadi, ularda faoliyat olib borayotgan yoshlarni innovatsion loyihalari hamda ilm-fan sohasi va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha bergen taklif va tavsiyalarini o‘rganish asosida iqtidorli va tashabbuskor yoshlarni Yoshlar akademiyasi a’zoligiga jalgab etadi;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, ilmiy-tadqiqot va ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda ilmiy-tadqiqot ishlari va innovatsion faoliyatda qatnashayotgan yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga ko‘maklashadi;

iqtidorli yoshlarni ilmiy-axborot resurslaridan foydalanish uchun zarur shart-sharoit yaratish bo'yicha amaliy choralarmi ko'radi;

istiqbolli yo'nalishlar (sun'iy intellekt, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, robototexnika va mexatronika, farmatsevtika, biotexnologiya, dasturlash, sanoat dizayni, 3D modellash)ni rivojlantirish maqsadida sohaning yetakchi olimlari va malakali mutaxassislari ishtirokida yoshlarning ijodiy va intellektual salohiyatini oshirishga ko'maklashadi.

d) iqtidorli yoshlarni rivojlangan xorijiy mamlakatlarning nufuzli ilmiy markazlari, universitetlari, texnoparklari va ishlab chiqarish korxonalarida malaka oshirishlariga ko'maklashish bo'yicha:

xorijiy ilmiy markazlar, universitetlar, texnoparklar va ishlab chiqarish korxonalari bilan doimiy hamkorlikni amalga oshiradi va shu asosda iqtidorli yoshlarni maqsadli hamda tizimli stajirovka va qisqa muddatli o'qishlarini tashkil etadi;

iqtidorli yoshlarni tanlov asosida saralab olgan holda, ularni rivojlangan mamlakatlarda qisqa muddatli malaka oshirish ishlarini tashkil qiladi;

xorijiy texnoparklarning ilg'or tajribalarini o'rganish maqsadida tajriba almashish dasturlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

iqtidorli yoshlarni xorijiy davrlarda bo'lib o'tadigan nufuzli ilmiy-innovatsion tadbirlar, konferensiyalar, musobaqalarga ishtirok etishini tashkil qiladi.

ilmiy tadqiqotlarni bajarish ishtiyoyqiga ega iqtidorli yoshlarni xorijiy ilmiy markazlarning laboratoriya bazasidan foydalanishlari uchun hamkorlikni rivojlantiradi, ularning zamonaviy laboratoriya uskunalaridan foydalanishni o'rganishlari uchun zarur choralarmi ko'radi;

e) ilmiy-tadqiqotlarni bajarish ishtiyoyqiga ega iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, amaliy va innovatsion tadqiqoilarni olib borishlariga imkon yaratish, yangi avlod yosh olimlarini tayyorlash bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish bo'yicha:

ilmiy tadqiqotlarni bajarish ishtiyoyqiga ega iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash choralarini ko'radi, ularni oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tashkilotlarning laboratoriya bazasidan foydalanishlari uchun zarur shart-sharoit yaratadi;

iqtidorli va tashabbuskor yoshlarning amaliy va innovatsion tadqiqotlarni olib borishlari uchun imkon yaratish maqsadida loyihalarni shakllantirishga ko'maklashadi, olim va mutaxassislar ishtirokida loyihalarni rasmiylashtirish, biznes rejalarini tayyorlash bo'yicha treninglar o'tkazadi;

ilmiy tadqiqotlarni bajarish ishtiyoyqiga ega iqtidorli yoshlarni yetakchi olimlarga biriktirish va ilmiy maktablarning mustahkam bazasini shakllantirish asosida yangi avlod yosh olimlarini tayyorlashga qaratilgan tizimli ishlarni amalga oshiradi.

f) yosh olimlar tomonidan aniq vazifalarni hal etishga, ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori bo'lgan ilg'or texnologik ishlanmalarni ishlab chiqishga qulay sharoitlar yaratish bo'yicha:

vazirlilik ko'magida iqtidorli yoshlarni davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda ishlab chiqarish korxonalari faoliyatini o'rganishga jalb etadi, iqtisodiyot

tarmoqlarida ilg‘or texnologiyalarga bo‘lgan ehtiyojlarni aniqlash bo‘yicha tizimli ishlarni olib boradi;

Yoshlar akademiyasi a’zolari tarkibidan tashqi bozorlarni o‘rganish bo‘yicha ishchi guruhlarni tuzadi va yuqori texnologik mahsulotlar eksportini rivojlantirish bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

ilmiy ishlanmalarning ichki va tashqi bozorda raqobatbardoshligini ta’minalash maqsadida iqtidorli va tashabbuskor yoshlarga patentlash, ilmiy ishlanmalarni baholash va sertifikatlashtirishda amaliy yordam ko‘rsatadi;

iqtidorli va tashabbuskor yoshlar tomonidan ishlab chiqilgan ilg‘or texnologik ishlanmalar asosida tajriba namunalarini yaratish va tayyor mahsulot bosqichiga olib chiqish uchun zarur shart-sharoitlarni ta’minalaydi.

g) ilmiy-innovatsion akselerator va biznes-inkubatorlarni tashkil etish asosida tashabbuskor yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga yo‘naltirish bo‘yicha:

ilmiy ishlanmalarni sinovdan o‘tkazish va tijoratlashtirishga tayyorlash maqsadida ilmiy-innovatsion akselerator va biznes-inkubatorlarni tashkil etadi va ularga iqtidorli va tashabbuskor yoshlarni keng jalg qiladi;

yoshlarda tadbirkorlik faoliyati ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan tadbirlar, xususan, trening va mahorat darslarini tashkil etish va o‘tkazish, ularning o‘quv markazlarida malaka oshirishlari va zarur bilimlarni egallashlari uchun tashkiliy ishlarni amalga oshiradi;

tashabbuskor yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish maqsadida tashkil etilgan tanlovlarni o‘tkazadi va boshqa tashkilotlar tomonidan o‘tkazilgan bunday tanlovlarda g‘olib bo‘lgan Yoshlar akademiyasi a’zolarini rag‘batlantirishga ko‘maklashadi.

h) yoshlarning startap-loyihalarini xo‘jalik boshqaruvi organlari va davlat ulushi mavjud korxonalarini izchil rivojlantirish bo‘yicha zamon talablariga javob beradigan, tijoratlashtirish darajasi yuqori bo‘lgan mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqarishga yo‘naltirish bo‘yicha:

xo‘jalik boshqaruvi organlari va davlat ulushi mavjud korxonalar muammolarini o‘rganish bo‘yicha sayyor tashriflarni tashkil etishni tashkillashtiradi;

korxonalarda mavjud muammolar muhokamasi yuzasidan davra suhbatlarini o‘tkazishda va yechimi yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishda amaliy yordam ko‘rsatadi;

tijoratlashtirish darajasi yuqori bo‘lgan raqobatbardosh mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan startap loyihalar shakllantirishni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni ta’minalaydi.

l) xalqaro va mahalliy darajada e’tirof etilgan tashkilotlar, universitetlar, ilmiy markazlar bilan yaqindan aloqalar o‘rnatish, ularning olimlari va mutaxassislari ishtirokida mahorat darslari, treninglar, shuningdek, dolzarb ilmiy-innovatsion yo‘nalishlar bo‘yicha konferensiyalar, seminarlar va tanlovlardan o‘tkazish bo‘yicha:

xalqaro darajada e’tirof etilgan tashkilotlar, universitetlar, ilmiy markazlar bilan yaqindan aloqalar o‘matadi va iqtidorli yoshlarning ilmiy ishlanmalarni aprobatsiya qilish maqsadida ilmiy-innovatsion yo‘nalishlar bo‘yicha konferensiya, forum, seminar va tanlovlardan o‘tkazadi;

buyurtma asosida nufuzli ilmiy markazlardan yetakchi olimlar va mutaxassislar ishtirokida mahorat darslari, trening va seminarlar o'tkazadi;

mahalliy tashkilot, universitet va ilmiy markazlardan olim va mutaxassislarning, Yoshlar akademiyasi barcha a'zolarining hamda iqtidorli yoshlarning ilmiy nashrlarini chop etish, ilmiy ma'ruzalarini tayyorlash va namoyish etishga tayyorlashda hamkorlik qilishga jalg etadi.

4-bob. Yoshlar akademiyasi platformalari

10. Yoshlar akademiyasi quyidagi platformalardan iborat:

“G‘oyalar generatorlari” – Yoshlar akademiyasining asosiy yo‘nalishlariga tegishli bo‘lgan ma’lum bir muammoning yechimiga qaratilgan innovatsion g‘oyaga ega jamoalar platformasi;

“Startaplar” – o‘z g‘oyasi bo‘lgan va ushbu g‘oyani amalga oshirishga qaratilgan startap loyihalari va ularni amalga oshirish bo‘yicha aniq rejaga ega jamoalar platformasi;

“Biznes vakillari” – faoliyatida ilm-fan va innovatsiya yutuqlarini qo‘llagan va tegishli sohada kamida 1 yillik tajribaga ega bo‘lgan jamoalar platformasi;

“Bo‘lajak akademiklar” – yuqorida qayd etilgan platformalarda faol ishtirok etgan, mamlakatning ilm-fan rivojlanishiga katta hissa qo‘shayotgan yuqori va ilmiy salohiyatga ega yosh olimlar platformasi.

5-bob. Yoshlar akademiyasi a’zolarining huquqlari va majburiyatları

11. Yoshlar akademiyasiga o‘zlarining innovatsion loyihalari va g‘oyalariga ega iqtidorli yoshlar va talabalar, 40 yoshdan oshmagan olimlar va novatorlar jamoalar shaklida saralash asosida qabul qilinadi.

12. Yoshlar akademiyasi a’zolari quyidagi huquqlarga ega:

- Yoshlar akademiyasi tomonidan muvofiqlashtiriladigan “Bo‘lajak olim” tanlovi va “Akademik harakatchanlik” dasturlarida ishtirok etish;

- O‘zbekiston hududida ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish;

- Yoshlar akademiyasi tomonidan xorijiy davlatlarning nufuzli tashkilotlarida tashkil etiladigan malaka oshirish dasturlarida ishtirok etish;

- Amaliy, innovatsion va startap-loyihalarni ishlab chiqish, ularning natijalari asosida tayyorlangan innovatsion mahsulotlarni tijoratlashtirish;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo‘yicha “El-yurt umidi” jamg‘armasining xorijiy tashkilotlarda malaka oshirish va stajirovkalar bo‘yicha dasturlarida ishtirok etish;

- davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida bajariladigan yosh olimlar ilmiy-texnik loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda qatnashish;

- O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan biznesni tashkil etish va rivojlantirish, shu jumladan, biznes-rejalar va ta’sis hujjatlarini tayyorlash,

sug‘urta, buxgalteriya, hisobot berish, biznes-sheriklarni, mini-texnologiyalar va uskunalarini topish bilan bog‘liq xizmatlarini tashkil etish bo‘yicha muntazam o‘tkaziladigan mahorat darslarida qatnashish;

- Yoshlar akademiyasi faoliyatini takomillashtirish yuzasidan takliflami ishlab chiqish va o‘matilgan tartibda taqdim etish;
- Mahalliy va xalqaro ilmiy-ommabop nashrlarda maqolalar nashr qilish;
- Yoshlar akademiyasi a’zolari o‘zlarini faoliyat olib borayotgan istiqbolli yo‘nalishlar bo‘yicha tanlovda qatnashish huquqiga egadir;
- Yoshlar akademiyasi a’zolari qonun hujjatlarida belgilangan boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

6-bob. Yoshlar akademiyasining boshqaruvi va tuzilmasi

13. Yoshlar akademiyasiga rahbarlik O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Yoshlar akademiyasi faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi boshlig‘i zimmasiga yuklatiladi.

14. Yoshlar akademiyasi rahbari:

- O‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziriga bo‘ysunadi.
- Yoshlar akademiyasiga a’zolarini qabul qilish jarayonini boshqaradi;
- Yoshlar akademiyasining yillik va istiqboldagi ish rejalarini ishlab chiqadi, tasdiqlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziriga kiritadi va bajarilishi ta’minlaydi;
- Yoshlar akademiyasi assambleyasi yig‘ilishlarida raislik qiladi;
- Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarida va boshqa tashkilotlarda, shuningdek, xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar vakillari ishtirokida o‘tkaziladigan rasmiy tadbirlarda Yoshlar akademiyasi nomidan ishtirok etadi;
- Yoshlar akademiyasining faoliyati yuzasidan Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri hamda tegishli vazir o‘rinbosariga hisobot beradi.

7-bob. Yoshlar akademiyasi liderlari

15. Yoshlar akademiyasi liderlari – Yoshlar akademiyasining a’zolari hisoblanib, ularning faoliyati Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Yoshlar akademiyasi faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi tomonidan nazorat qilinadi.

16. Yoshlar akademiyasi liderlarining asosiy maqsadi oliy ta’lim muassasalari va hududlarda Yoshlar akademiyasini targ‘ib qilish, talaba-yoshlarni ilmiy-innovatsion sohaga keng jalb qilish, ularni ilmiy-innovatsion g‘oyalari, loyihalari va ishlanmalarini rivojlantirish hamda maqsadli yo‘naltirish, shuningdek, iqtidorli yoshlarni, bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, tashabbuslarini amalga oshirishga ko‘maklashishdan iborat.

17. Yoshlar akademiyasi liderlari tizimi quyidagilardan iborat:

IV daraja – Oliy ta’lim muassasalarida Yoshlar akademiyasining fakultet liderlari;

- | | |
|------------|---|
| III daraja | - Oliy ta'lim muassasalaridagi Yoshlar akademiyasi liderlari; |
| II daraja | - Hududlardagi Yoshlar akademiyasi liderlari; |
| I daraja | - Yoshlar akademiyasi platformalarining liderlari; |

8-bob. Yoshlar akademiyasining assambleyasi

18. Yoshlar akademiyasining assambleyasi tarkibi Yoshlar akademiyasi liderlaridan tuzilib, jami 30 nafar a'zodan tashkil topadi.

19. Yoshlar akademiyasining assambleyasi a'zolari:

- 13 nafari - Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda viloyatlardagi Yoshlar akademiyasi liderlari;
- 8 nafari - Toshkent shahridagi Yoshlar akademiyasi liderlari;
- 8 nafar a'zo - Yoshlar akademiyasi platformalarining liderlari;
- Yoshlar akademiyasi rahbaridan iborat bo'ladi.

20. Yoshlar akademiyasining assambleyasi tarkibi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri tomonidan tasdiqlanadi.

21. Yoshlar akademiyasining assambleyasi a'zolari o'z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiradi.

22. Yoshlar akademiyasining assambleyasi yig'ilishlari unda Yoshlar akademiyasining assambleyasi a'zolarining kamida yarmidan ko'p qismi ishtirok etgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

23. Yoshlar akademiyasining assambleyasining vazifalari:

Yoshlar akademiyasining ish rejalari va chora-tadbirlar dasturlarini ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi;

Yoshlar akademiyasi liderlarining faoliyati natijalari ko'rib chiqadi va yangi yo'nalishlarini belgilab beradi;

"Bo'lajak olim" tanlovi va "Akademik harakatchanlik" dasturlari doirasida kelib tushgan loyihalarni ko'rib chiqadi va xulosa beradi;

Yoshlarning ilm-fan va innovatsion faoliyat sohasidagi asosiy muammolarini aniqlash va uni yechimiga qaratilgan takliflarni ishlab chiqadi;

Yoshlar akademiyasi faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar va kreativ takliflar ishlab chiqadi va asosiy vazifalarni belgilaydi;

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri tomonidan tasdiqlangan chora-tadbirlarni yuqori saviyada amalga oshiradi;

24. Davlat rahbari, Bosh vazir, Administratsiya rahbari va vazir ishtirokidagi yig'ilishlarga yuqori saviyada tayyorgarlik ko'radi hamda Yoshlar akademiyasi faoliyatidan kelib chiqqan holda hisobotlar va takliflar ishlab chiqadi;

25. Yoshlar akademiyasi oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarilishini ta'minlash maqsadida manfaatdor davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarini jalb qiladi;

26. Yoshlar akademiyasining assambleyasi tarkibidan chiqarish a'zolik bo'yicha belgilangan shartlar va talablar bajarilmagan taqdirda Yoshlar akademiyasi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi xulosasiga ko'ra, shuningdek ixtiyoriy tarzda yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

9-bob. Yakunlovchi qoidalar

27. Yoshlar akademiyasini qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

28. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

**Yoshlar akademiyasi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimidagi tashkilotlar o'rtaida
mamlakatimizdagi yoshlarning ilmiy-innovatsion faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan
vazifalar taqsimoti**

Innovatsion rivojlanish agentligi

- ❖ "Bo'lajak olim" tanlovi
- ❖ "Akademik harakatchanlik" dasturi
- ❖ "Innovation g'oyalari yetakchisi" ko'krak nishoni
- ❖ Malaka oshirish dasturlarini tashkil etish

Innovatsiyalar milliy ofisi

- ❖ "TechnoWays" marafoni
- ❖ "Ixtirochilik va ratsionalizatorlik" tanlovi
- ❖ "Mirzo Ulug'bek vorislari" tanlovi

Yoshlar va INNO Texnoparklari

- ❖ Zamonaviy kasblar bo'yicha ta'lim
- ❖ Ixtirochi talabalarni loyihalarni rivojlantirish
- ❖ Zarur Infratuzilma va jihozlardan foydalanish

**Talaba va o'quvchilarining ma'naviy yuksalistigiga
ko'maklashish markazi**

- ❖ Itimoiy tarmoqlar orqali targ'ibot ishlarni amalga oshirish
- ❖ OTM va TTJlarida tadbirlar tashkil etish

Hududiy boshqarmalar

- ❖ Hududlardagi iqtidorlarni aniqlash
- ❖ Kasbiy ta'lim muassasalaridagi iqtidorli yoshlarni bilan ishlash

YOSHLAR AKADEMIYASI

Oliy ta'lim muassasalari

- Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limlari
- ❖ Talabalarni ilmiy faoliyatga yo'naltirish;
- ❖ Tanlovlar va tadbirlar tashkil qilish.

Oliy ta'lim muassasalari

- Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektorlar
- ❖ Talabalarni ilmiy va innovatsion loyihalarni rivojlantirish
- ❖ Talabalarni turli tantovlarga tayyorlash

**Yoshlar akademiyasi platformalariga malakali
mutaxassislarini jalg qilish**

- 4 ta platformaning har biriga kamida 3 nafardan soha mutaxassislarini maslahatchi -ekspert sifatida jalg qilish

Xalqaro aloqalar

- Xorijdagи vatandosh mutaxassis-olimlar bilan hankorlik
- ❖ Talaba yoshlarni ilmiy va o'quv stajirovkalari
- ❖ Xorijiy OTMlarga talabalarni yuborish

Ixtirochi yoshlarni yoshlar akademiyasiga jalg qilish

- Internet va ijtimoiy tarmoqlarda o'z ixtirosi bilan mashxur bo'lgan, muhandis, ixtirochi yoshlarni yoshlar akademiyasiga jalg qilish.

Iqtidorli va tashabbuskor yoshlarni Yoshlar akademiyasiga a'zoligiga qabul qilinish tartiblari to'g'risidagi

NIZOM

1. Mazkur nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-avgustdagи "Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4433-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, Yoshlar akademiyasi (keyingi o'rnlarda - Yoshlar akademiyasi) platformalariga iqtidorli va tashabbuskor yoshlarni saralab olish hamda a'zolikka qabul qilish tartibini belgilaydi.

1-bob. Yoshlar akademiyasi a'zoligiga qabul qilish

2. Yoshlar akademiyasi a'zoligiga saralash Yoshlar akademiyasini faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi hamda Yoshlar akademiyasi assambleyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Yoshlar akademiyasi a'zoligiga qabul qilish jarayonlari ushbu Nizomga asoslangan holda amalga oshiriladi.

3. Yoshlar akademiyasiga o'zlarining innovatsion loyihalari va g'oyalariga ega iqtidorli yoshlar va talabalar, 40 yoshdan oshmagan olimlar va novatorlar jamoa shaklida saralash asosida qabul qilinadi.

4. Yoshlar akademiyasi a'zolari quyidagi platformalar bo'yicha a'zolikka qabul qilinadi:

"G'oyalar generatorlari" – Yoshlar akademiyasining asosiy yo'nalishlariga tegishli bo'lgan ma'lum bir muammoning yechimiga qaratilgan innovatsion g'oyaga ega jamoalar platformasi;

"Startaplar" – o'z g'oyasi bo'lgan va ushbu g'oyani amalga oshirishga qaratilgan startap loyihalari va ularni amalga oshirish bo'yicha aniq biznes rejaga ega jamoa platformasi;

"Biznes vakillari" – faoliyatida ilm-fan va innovatsiya yutuqlarini qo'llagan va tegishli sohada kamida 1 yillik tajribaga ega bo'lgan jamoalar platformasi;

"Bo'lajak akademiklar" – yuqorida qayd etilgan platformalarda faol ishtirok etgan, mamlakatning ilm-fan rivojlanishiga katta hissa qo'shayotgan yuqori va ilmiy salohiyatga ega olimlar platformasi.

5. Bir platforma a'zolidan boshqa platforma a'zoligiga kirish uchun ushbu platforma a'zoligi uchun belgilangan talablarni bajargan taqdirda ruxsat beriladi.

6. Alovida platforma a'zo bo'lish uchun Yoshlar akademiyasining a'zoligiga talabgor (keyingi o'rnlarda Talabgor) shakllantirilgan elektron baza ro'yxatidan o'tadi.

7. Elektron baza Yoshlar akademiyasining rasmiy veb sahifasida yuritiladi.

8. Elektron bazadan ro'yxatdan o'tish talabgorlar tomonidan o'rnatilgan tartibda elektron arizani to'ldirish va talabgorning shaxsiy ma'lumotlarini tasdiqlovchi hujjatlarni elektron bazaga kiritish asosida amalga oshiriladi.

9. Talabgor kiritgan ma'lumotlar tizim administratori tomonidan tasdiqlangach, talabgor elektron bazadan ro'yxatdan o'tgan hisoblanadi.

Talabgorlar elektron bazaga kiritilgan talabgorlarning shaxsiy ma'lumotlarini tasdiqlovchi hujjatlar haqiqiyligiga mas'ul hisoblanadilar.

10. Elektron bazadan ro'yxatdan o'tgan talabgorlar bir oydan ko'p bo'lmagan muddatda Yoshlar akademiyasini muvofiqlashtirish bo'limi hamda Yoshlar akademiyasi assambleyasi tomonidan ko'rib chiqilib, Yoshlar akademiyasi a'zoligiga qabul qilishga tavfsiya etilgan talabgorlar bayon bilan tasdiqlanadi.

11. Yoshlar akademiyasi a'zoligiga qabul qilingan talabgorlar ro'yxati Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining tegishli buyrug'iga asosan tasdiqlanadi.

12. Yoshlar akademiyasi a'zoligiga qabul qilingan talabgorlarga a'zolikni rasman tasdiqlovchi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining imzo va muxri tushurilgan yoki elektron imzoli (QR kod) sertifikat taqdim etiladi.

2-bob. Saralash bosqichini o'tkazishning asosiy mezonlari

13. Saralash bosqichini o'tkazishning asosiy mezonlari quyidagilar hisoblanadi:

Platformalarga faqat jamoaviy tarzda a'zo bo'lish mumkin;

Jamoa a'zolari 2 kishidan 5 kishigacha bo'lishlari lozim. Tashkil etilgan jamoa bir vaqtning o'zida faqatgina bitta platformaga a'zo bo'lishi mumkin;

Yoshlar akademiyasiga a'zo bo'lish uchun ilmiy daraja va unvonga ega bo'lish talab etilmaydi. Yoshlar akademiyasining a'zolari bir vaqtning o'zida bir nechta platforma jamoalariga a'zo bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi;

Jamoaning har bir a'zosi ro'yxatdan o'tayotgan paytida 40 yoshdan oshmagan bo'lishi lozim;

Yoshlar akademiyasiga a'zo bo'lish uchun jamoalar tomonidan taklif etilayotgan loyiha Yoshlar akademiyasining istiqbolli yo'naliishlaridan biriga mos bo'lishi, aniq bir sohadagi muammoga yechim bo'la olishi hamda hayotga tatbiq etishning yuqori darajasiga ega bo'lishi kerak;

Yoshlar akademiyasi platformalariga a'zolikka qabul qilish, a'zolik muddatini uzaytirish va akademiya a'zolidan chiqarish Yoshlar akademiyasi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi hamda Yoshlar akademiyasi assambleyasi bayonlari orqali amalga oshiriladi.

14. "G'oyalar generatori" platformasiga topshirilgan arizalar quyidagi mezonlar bo'yicha platformaga qabul qilinadi:

- taklif etilayotgan g'oyaning originalligi;

- jamoaga jalb etilgan har bir a'zoning vazifalari asoslanganligi;

- taklif etilgan g'oyaning "Startap"ga aylantirish imkoniyati;

- taklif etilgan g'oyaning amalga oshirilish muddati 1 yildan oshmasligi;

- Taklif etilayotgan g'oya O'zbekiston Respublikasida mavjud o'xshash loyihalardan ajralib turishi lozim.

15. "Startaplar" platformasiga topshirilgan arizalar quyidagi mezonlar bo'yicha platformaga qabul qilinadi:

- taklif etilgan loyihaning originalligi;
- jamoaga jalb etilgan har bir a'zoning vazifalari asoslanganligi;
- ishlab chiqilgan biznes-rejaning samaradorlik darajasining yuqoriligi;
- taklif etilgan loyihaning amalga oshirilishi ehtimoli kattaligi.

16. "Biznes vakillari" platformasiga topshirilgan arizalar quyidagi mezonlar bo'yicha platformaga qabul qilinadi:

- taklif etilgan loyihaning originalligi;
- biznes faoliyati 1 yildan kam bo'lmasligi;
- biznes faoliyatida innovatsion ishlanmalardan foydalanganlik darajasiga;

17. "Bo'lajak akademiklar" platformasiga topshirilgan arizalar quyidagi mezonlar bo'yicha platformaga a'zolikka qabul qilinadi:

- ilmiy darajasi yoki unvoni mavjudligi;
- elektron ro'yxatdan o'tish paytida ilmiy loyihasining mavjudligi;
- biror sohadagi muammolarni ilmiy jihatdan yechimini topishga qobiliyati;
- ilmiy loyihalarni amalga oshirishga bo'lgan qobiliyati;
- davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatidan kelib chiqib o'z ilmiy loyihalarini biror sohaga tatbiq etishga tayyorligi.

3-bob. Yoshlar akademiyasi a'zoligidan chiqarish tartibi

18. Yoshlar akademiyasi a'zosi maqomidan mahrum qilishga Yoshlar akademiyasi assambleyasi qaroriga, shu jumladan, akademiya a'zosi tomonidan muayyan platformaga a'zolik bo'yicha tuzilgan shartnomada belgilangan shartlar va talablar bajarilmagan taqdirda Yoshlar akademiyasi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi xulosasiga ko'ra, shuningdek ixtiyoriy tarzda yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

4-bob. Saralash bosqichini o'tkazish tartibi

19. Yoshlar akademiyasi platformalariga a'zolikka saralash bosqichi quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- Yoshlar akademiyasiga a'zo bo'lish istagini bildirgan jamoalar Yoshlar akademiyasi rasmiy veb-saytining elektron bazasidan ro'yxatdan o'tadi;
- Yoshlar akademiyasi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi ro'yxatdan o'tgan yoshlar va jamoalar bazasini shakllantiradi;
- Elektron bazaga kelib tushgan hujjatlar to'plami sonidan kelib chiqib Yoshlar akademiyasi assambleyasi tomonidan har oyda kamida bir marta saralash bosqichi o'tkaziladi;
- Yoshlar akademiyasi assambleyasi bayoni bilan saralashdan o'tkazilgan jamoalar Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining buyrug'i bilan Yoshlar akademiyasi a'zoligiga tasdiqlanadi.

20. Yoshlar akademiyasi kengashi tomonidan Yoshlar akademiyasi platformalari a'zoligiga tavsiya etilmagan jamoalar keyingi saralash bosqichlariga qadar o'z loyihalari puxta tayyorlab, qayta topshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

5-bob. Saralash bosqichida ishtirok etmay akademiya a'zoligiga qabul qilish tartibi

21. Yoshlar akademiyasi platformalariga quyidagilar hujjat topshirib, a'zolikka qabul qilinadi:

- Davlat mukofoti sovrindorlari;
- Xalqaro fan olimpiadalarida g'oliblikni qo'lga kiritgan iqtidorli yoshlar;

22. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri va tegishli vazir o'rinosbosarlarining tavsiyasi bilan yuqori natijalarga erishib kelayotgan iqtidorli yoshlar yakka tartibda Yoshlar akademiyasi a'zoligiga qabul qilinishi mumkin.

6-bob. Yakunlovchi qoidalar

23. Saralash bosqichini o'tkazish tartibi va mezonlariga o'zgartirish kiritish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

24. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

“Yoshlar akademiyasi liderlari” tizimini tashkil etish to‘g‘risidagi NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom Yoshlar akademiyasining “Yoshlar akademiyasi liderlari” tizimini (keyingi o‘rinlarda - Yoshlar akademiyasi liderlari) maqomi, asosiy vazifalari, huquqlari, majburiyati va faoliyatining tashkiliy asoslarini belgilab beradi.

2. Yoshlar akademiyasi liderlari – Yoshlar akademiyasining a’zolari hisoblanib, ularning faoliyati Yoshlar akademiyasi faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi tomonidan nazorat qilinadi.

3. Yoshlar akademiyasi liderlari tizimi quyidagilardan iborat:

- | | |
|------------|--|
| IV daraja | - Oliy ta’lim muassasalarida Yoshlar akademiyasining fakultet liderlari; |
| III daraja | - Oliy ta’lim muassasalaridagi Yoshlar akademiyasi liderlari; |
| II daraja | - Hududlardagi Yoshlar akademiyasi liderlari; |
| I daraja | - Yoshlar akademiyasi platformalarining liderlari; |

4. Yoshlar akademiyasi liderlari o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasи va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining buyruq va topshiriqlari, shuningdek, ushu Nizomga va boshqa qonun hujjatlarga amal qiladi.

2-bob. Yoshlar akademiyasi liderlarining maqsad va vazifalari

5. Yoshlar akademiyasi liderlarining asosiy maqsadi oliy ta’lim muassasalari va hududlarda Yoshlar akademiyasini targ‘ib qilish, talaba-yoshlarni ilmiy-innovatsion sohaga keng jalb qilish, ularni ilmiy-innovatsion g‘oyalari, loyihalari va ishlanmalarini rivojlantirish hamda maqsadli yo‘naltirish, shuningdek, iqtidorli yoshlarni, bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, tashabbuslarini amalgashishga ko‘maklashishdan iborat.

6. Yoshlar akademiyasi liderlarining vazifalari quyidagilardan iborat:

Oliy ta’lim muassasalarida Yoshlar akademiyasining fakultet liderlari:

- Oliy ta’lim muassasalari Fakultetlarida Yoshlar akademiyasi faoliyatini targ‘ib qilish;

- Oliy ta'lim muassasalari miqyosida Yoshlar akademiyasining tanlovlari va tadbirlarini tashkil etishga ko'maklashish;
- Talabalarni ilmiy, startap loyihalarda ishtirok etishga jalg qilish;
- Yoshlar akademiyasining G'oyalar generatori platformasining targ'iboti va yoshlarni jalg qilish bilan shug'ullanishga mas'ul hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalaridagi Yoshlar akademiyasi liderlari:

- Oliy ta'lim muassasalarida Yoshlar akademiyasi faoliyatini targ'ib qilish;
- Oliy ta'lim muassasalarida Yoshlar akademiyasining fakultet liderlari faoliyatini muvofiqlashtirish;
- Oliy ta'lim muassasalari miqyosida Yoshlar akademiyasining tanlovlari va tadbirlarini tashkil etish;
- Oliy ta'lim muassasalari imkoniyatlaridan kelib chiqib, Yoshlar akademiyasi faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar va kreativ takliflar ishlab chiqish;
- Yoshlar akademiyasi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi bilan kelishilgan va Oliy ta'lim muassasasining rahbari tomonidan tasdiqlangan chora-tadbirlarni yuqori saviyada tashkil etish;
- Davlat rahbari, Bosh vazir, Administratsiya rahbari va vazirning hududlarga amalga oshiradigan tashriflariga yuqori saviyada tayyorgarlik ko'rish, o'z faoliyatidan kelib chiqqan holda hisobotlar va takliflar ishlab chiqish;
- Oliy ta'lim muassasasidagi iqtidorli yoshlarning yagona reestrini shakllantirib, ma'lumotlarni doimiy yangilab borish;
- Ilmiy darajalari yoshlar sonini ko'paytirish maqsadida turli targ'ibot va amaliy ishlarni bajarishga mas'ul hisoblanadi.

Hududlardagi Yoshlar akademiyasi liderlari:

- Hududlarda Yoshlar akademiyasi faoliyatini targ'ib qilish;
- Hududlarda Yoshlar akademiyasi liderlari faoliyatini muvofiqlashtirish;
- Hududlar miqyosida Yoshlar akademiyasining tanlovlari va tadbirlarini tashkil etish;
- Hududlarda mavjud imkoniyatlaridan kelib chiqib, Yoshlar akademiyasi faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar va kreativ takliflar ishlab chiqish;
- Yoshlar akademiyasi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi bilan kelishilgan va Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining hududiy boshqarmasi boshlig'i tomonidan tasdiqlangan chora-tadbirlarni yuqori saviyada tashkil etish;
- Davlat rahbari, Bosh vazir, Administratsiya rahbari va vazirning hududlarga amalga oshiradigan tashriflariga yuqori saviyada tayyorgarlik ko'rish, o'z faoliyatidan kelib chiqqan holda hisobotlar va takliflar ishlab chiqish;
- Hududlardagi iqtidorli yoshlarning yagona reestrini shakllantirib, ma'lumotlarni doimiy yangilab borish;
- Hududlardagi Innovatsion tumanlar uchun iqtidorli yoshlar tomonidan takliflar va loyihalar ishlab chiqilishini ta'minlash;
- Hududlarda faoliyat yuritadigan Biznes vakillar va muvafaqqiyatlari startapchilarni Yoshlar akademiyasiga jalg qilish;
- Hududlarda amalga oshirilayotgan "Bo'lajak olim" tanlovida g'olib bo'lgan loyihalarni va "Akademik harakatchanlik" dasturlari bajarilishini doimiy nazorat qilib borishga mas'ul hisoblanadi.

Yoshlar akademiyasi platformalarining liderlari:

- Yoshlar akademiyasining “G’oyalar generatorlari”, “Startaplar”, “Biznes vakillari”, “Bo’lajak akademiklar” platformalarini targ’ib qilish;
- Yoshlar akademiyasining platformalari bo‘yicha tanlovlar va tadbirlarini tashkil etish;
- Yoshlar akademiyasining platformalari mavjud imkoniyatlaridan kelib chiqib, Yoshlar akademiyasi faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar va kreativ takliflar ishlab chiqish;
- Yoshlar akademiyasi faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi bilan kelishilgan va Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining hududiy boshqarmasi boshlig‘i tomonidan tasdiqlangan chora-tadbirlarni yuqori saviyada tashkil etish;
- Platformalar bo‘yicha loyihalor va iqtidorli yoshlarning ro‘yxatini shakllantirish hamda ma’lumotlarni doimiy yangilab borish;
- Platformalar yo‘nalishlari bo‘yicha tajribali mutaxassislarni Yoshlar akademiyasiga faoliyatiga va tadbirlariga jalb qilish;

Yoshlar akademiyasi assambleyasi:

- Yoshlarning ilm-fan va innovatsion faoliyat sohasidagi asosiy muammolarini aniqlash va uni yechimiga qaratilgan takliflarni ishlab chiqish;
- Xalqaro darajadagi Yoshlar akademiyasining tadbirlarini tashkil etish;
- Yoshlar akademiyasi faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar va kreativ takliflar ishlab chiqish va asosiy vazifalarni belgilash;
- Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri tomonidan tasdiqlangan chora-tadbirlarni yuqori saviyada amalga oshirish;
- Davlat rahbari, Bosh vazir, Administratsiya rahbari va vazir ishtirokidagi yig‘ilishlarga yuqori saviyada tayyorgarlik ko‘rish, o‘z faoliyatidan kelib chiqqan holda hisobotlar va takliflar ishlab chiqish;
- Respublikadagi iqtidorli yoshlarning yagona reestrini shakllantirib, ma’lumotlarni doimiy yangilab borish;
- “Bo’lajak olim” tanlovida g’olib bo‘lgan loyihalarni va “Akademik harakatchanlik” dasturlari bajarilishini doimiy nazorat qilib borish;

3-bob. Yoshlar akademiyasi liderlarining huquq va imtiyozlari

7. Yoshlar akademiyasi liderlarining huquq va imtiyozlari quyidagilardan iborat:

Oliy ta’lim muassasalarida Yoshlar akademiyasining fakultet liderlari:

- Oliy ta’lim muassasasida Yoshlar akademiyasi liderligiga nomzod bo‘ladi;
- Oliy ta’lim muassasalarida Yoshlar akademiyasi tomonidan tashkil etiladigan tadbirlarda fakultet nomidan ishtirok etadi;

Oliy ta’lim muassasalaridagi Yoshlar akademiyasi liderlari:

- Yoshlar akademiyasi tomonidan tashkil etiladigan tadbirlarda oliy ta’lim muassasalari nomidan ishtirok etadi;
- Yoshlar akademiyasi faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi tavfsiyasiga asosan, faoliyat davrining har olti oyida Oliy ta’lim muassasasi mablag‘lari hisobidan bir martalik rag‘batlantiriladi;
- Hududlardagi Yoshlar akademiyasi liderligiga nomzod bo‘ladi;

- Xorijiy davlatlarga amalga oshiriladigan xizmat safarlari delegatsiyalari tarkibiga kiritiladi;

- Xorijiy davlatlarda ilmiy va o'quv stajirovkalarini amalga oshirishga nomzodligi kiritiladi;

- Davlat mukofotlari va nishonlariga nomzod hisoblanadi.

Hududlardagi Yoshlar akademiyasi liderlari:

- Yoshlar akademiyasi assambleyasi a'zosi bo'ladi;

- Yoshlar akademiyasi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi tavfsiyasiga asosan, faoliyat davrining har olti oyida Oliy ta'lim muassasasi mablag'lari hisobidan bir martalik rag'batlantiriladi;

- Yoshlar akademiyasi tomonidan tashkil etiladigan tadbirlarda hududlar nomidan ishtirok etadi;

- Xorijiy davlatlarga amalga oshiriladigan xizmat safarlari delegatsiyalari tarkibiga kiritiladi;

- Xorijiy davlatlarda ilmiy va o'quv stajirovkalarini amalga oshirishga nomzodligi kiritiladi;

- Davlat mukofotlari va nishonlariga asosiy nomzod hisoblanadi.

Yoshlar akademiyasi platformalarining liderlari:

- Yoshlar akademiyasi assambleyasi a'zosi bo'ladi;

- Yoshlar akademiyasi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi tavfsiyasiga asosan, faoliyat davrining har olti oyida Oliy ta'lim muassasasi mablag'lari hisobidan bir martalik rag'batlantiriladi;

- Yoshlar akademiyasi tomonidan tashkil etiladigan tadbirlarda platformalar a'zolari ishtirokini ta'minlaydi;

- Xorijiy davlatlarga amalga oshiriladigan xizmat safarlari delegatsiyalari tarkibiga kiritiladi;

- Xorijiy davlatlarda ilmiy va o'quv stajirovkalarini amalga oshirishga nomzodligi kiritiladi;

- Davlat mukofotlari va nishonlariga asosiy nomzod hisoblanadi.

8. Yoshlar akademiyasi liderlarining majburiyatları quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlari, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyruq va topshiriqlari, Yoshlar akademiyasini muvofiqlashtirish bo'limining topshiriqlari, oliy ta'lim muassasasi tomonidan qabul qilingan lokal hujjatlar doirasida faoliyat yuritish, ularda belgilangan tartib-qoidalarga rioya qilish;

- Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Yoshlar akademiyasini muvofiqlashtirish bo'limining topshiriqlari, oliy ta'lim muassasasi rahbariyatining Yoshlar akademiyasi liderlarining vazifa va faoliyat yo'nalishlari bilan bog'liq bo'lgan tegishli topshiriqlari va ko'rsatmalarini bajarish;

- Yoshlar akademiyasini muvofiqlashtirish bo'limiga hamda oliv ta'lim muassasasi rahbariyatiga o'z faoliyati to'g'risida hisobotlarni har chorakda taqdim etib borish;

- Yoshlar akademiyasi liderlari uchun ajratilgan xonalar, moddiy-texnik vositalar va mablag'lardan to'g'ri foydalanish;

- Oliy ta'lim muassasasining ilmiy innovatsion tadbirlarini tashkil etish ishlari ko'maklashish.

4-bob. Yoshlar akademiyasi liderlarini saylash va bo'shatish

9. Oliy ta'lim muassasalarida Yoshlar akademiyasining fakultet liderlari, Oliy ta'lim muassasalaridagi Yoshlar akademiyasi liderlari oliy ta'lim muassasalari talabalari orasidan saylanib, Yoshlar akademiyasi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi tavfsiyasiga asosan oliy ta'lim muassasalari rahbarlari tomonidan tasdiqlanadi.

10. Hududlardagi Yoshlar akademiyasi liderlari Hududlardagi oliy ta'lim muassasalaridagi eng yaxshi natija ko'rsatgan Yoshlar akademiyasining liderlari orasidan Yoshlar akademiyasi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi tavfsiyasiga asosan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri tomonidan tasdiqlanadi.

11. Yoshlar akademiyasi platformalarining liderlari Yoshlar akademiyasi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi tavfsiyasiga asosan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri tomonidan tasdiqlanadi. Yoshlar akademiyasi 4 ta platformasi bo'yicha 2 nafardan lider: 1 nafar mahalliy oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlar, 1 nafar xorijiy oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlar tayinlanadi.

12. Yoshlar akademiyasi liderligiga ko'rsatilgan nomzodlar:

30 (o'ttiz) yoshdan oshmagan, ilmiy-innovatsion sohada yutuq va natijalarga erishgan, shuningdek, yoshlar bilan ishlash amaliyotiga ega bo'lishi;

Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat, magistratura bosqichlari talabasi bo'lishi;

yetakchilik, liderlik qobiliyati, notiqlik mahorati, tashabbuskorlik va fidoyilik xususiyatlariga ega bo'lishi;

boshqaruva qobiliyati, tashkilotchilik, jamoat bilan ishlash va ish yuritish bo'yicha bilim-ko'nikma hamda muayyan ish tajribasiga ega bo'lishi;

mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, yoshlarga oid davlat siyosati ilmiy-innovatsion faoliyatga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlar to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi lozim.

13. Yoshlar akademiyasi liderligi sayloviga tayyorgarlik ko'rish hamda uni o'tkazish ochiq va oshkora tarzda amalga oshiriladi;

14. Yoshlar akademiyasi liderlari 1 (bir) yil davomida o'z faoliyatini olib boradi.

15. Ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda saylovga tayyorgarlikning borishi va saylov qanday o'tayotganini yoritib borish mumkin.

5-bob. Yoshlar akademiyasi liderlari faoliyatini moddiy qo'llab-quvvatlash

16. Oliy ta'lim muassasasi tomonidan Yoshlar akademiyasi liderlariga alohida xona, ish stoli va stullar, javonlar, kompyuterlar jamlanmasi, printer, proyektor, ekran, raqamli fotoapparat hamda zaruriy devonxona mahsulotlari bilan ta'minlanadi.

17. Oliy ta'lim muassasasi rahbarlari tavsiyasiga asosan eng faol Yoshlar akademiyasi liderlari Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri tomonidan "Innovatsion g'oyalar yetakchisi", "Oliy ta'lim a'lochisi" ko'krak nishonlari bilan taqdirlanishi mumkin.

18. Yoshlar akademiyasi liderlarining ish rejasida belgilangan chora-tadbirlar oliy ta'lim muassasasining ish rejasiga kiritiladi.

19. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-yanvardagi "Oliy ta'lim muassasalari talabalariga to'lanadigan stipendiyalar miqdorlarini belgilash hamda stipendiyalar tayinlash va to'lash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 59-son qarorining 20-bandiga asosan Yoshlar akademiyasi liderlari Yoshlar akademiyasi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi tavfsiyasiga asosan, faoliyat davrining har olti oyida oliy ta'lim muassasasining mablag'lari hisobidan bazaviy stipendiyaga nisbatan quyida ko'rsatilgan:

Oliy ta'lim muassasalaridagi Yoshlar akademiyasi liderlari — 8 barobari;

Hududlardagi Yoshlar akademiyasi liderlari — 10 barobari;

Yoshlar akademiyasi platformalari liderlari — 10 barobari miqdorlarida bir martalik rag'batlantiriladi.

Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirining
 2023-yil " 8 " 08 dagi
6-IOVA-son buyrug'iga
 6-ILOVA

“Yoshlar akademiyasi liderlari” tizimini tashkil etish TARTIBLARI

T/r	Daraja	Yoshlar akademiyasi liderlari tizimi	Vazifalari	Imtiyozlar	Mas'ullar
1.	IV daraja	Oliy ta'lif muassasalarida Yoshlar akademiyasining fakultet lideri	<ol style="list-style-type: none"> Oliy ta'lif muassasalari Fakultetlarda Yoshlar akademiyasi faoliyatini targ'ib qilish; Oliy ta'lif muassasalari miqyosida Yoshlar akademiyasining tanlovlari va tadbirlarini tashkil etishga ko'maklashish; Talabalarni ilmiy, startap loyihalarda ishtirok etishga jalb qilish; Yoshlar akademiyasining G'oyalar generatori platformasining targ'iboti va yoshlarni jalb qilish bilan shug'ullanadi. 	<ol style="list-style-type: none"> Oliy ta'lif muassasasida Yoshlar akademiyasi liderligiga nomizod bo'ladi; Oliy ta'lif muassasalarida Yoshlar akademiyasi tomonidan tashkil etiladigan tadbirlarda fakultet nomidan ishtirok etadi. 	Fakultet dekanlari
2.	III daraja	Oliy ta'lif muassasalaridagi Yoshlar akademiyasi lideri	<ol style="list-style-type: none"> Oliy ta'lif muassasalarida Yoshlar akademiyasi faoliyatini targ'ib qilish; Oliy ta'lif muassasalarida Yoshlar akademiyasining fakultet liderlari faoliyatini muvofiqlashtirish; Oliy ta'lif muassasalari miqyosida Yoshlar akademiyasining tanlovlari va tadbirlarini tashkil etish; Oliy ta'lif muassasalari imkoniyatlaridan kelib chiqib, Yoshlar akademiyasi faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar va kreativ takliflar ishlab chiqish; 	<ol style="list-style-type: none"> Yoshlar akademiyasi tomonidan tashkil etiladigan tadbirlarda oliy ta'lif muassasalari nomidan ishtirok etadi; Yoshlar akademiyasi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi tavfsiyasiga asosan, faoliyat davrining har 6 oyida OTM mablag'lari hisobidan bazaviy stipendiyaning 8 barobari miqdorida bir martalik moddiy rag'batlantiriladi; Yoshlar akademiyasining turli tadbirlarida ishtirok etishlari uchun 	Oliy ta'lif muassasalari rektorlari, filial direktorlari

T/r	Daraja	Yoshlar akademiyasi liderlari tizimi	Vazifalari	Imtiyozlar	Mas'ullar
			<p>5. Yoshlar akademiyasi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi bilan kelishilgan va Oliy ta'lrim muassasasining rahbari tomonidan tasdiqlangan chora-tadbirlarni yuqori saviyada tashkil etish;</p> <p>6. Davlat rahbari, Bosh vazir, Administratsiya rahbari va vazirning hududlarga amalga oshiradigan tashriflariga yuqori saviyada tayyorgarlik ko'rish, o'z faoliyatidan kelib chiqqan holda hisobotlar va takliflar ishlab chiqish.</p> <p>7. Oliy ta'lrim muassasasidagi iqtidorli yoshlarning yagona reestrini shakllantirib, ma'lumotlarni doimiy yangilab borish;</p> <p>8. Ilmiy darajalari yoshlar sonini ko'paytirish maqsadida turli targ'ibot va amaliy ishlarni bajarish.</p> <p>9. Yoshlar akademiyasining G'oyalar generatori va Bo'lajak akademiklar platformalariga shaxsan mas'ul hisoblanadi.</p>	<p>amalga oshiriladigan xizmat safarları xarajatlari OTMlар tomonidan qoplanadi;</p> <p>4. Hududlardagi Yoshlar akademiyasi liderligiga nomzod bo'ladi;</p> <p>5. Xorijiy davatlarda ilmiy va o'quv stajirovkalarini amalga oshirishga nomzodligi kiritiladi;</p> <p>6. Davlat mukofotlari va nishonlariga nomzod hisoblanadi;</p> <p>7. Eng faol liderlar "Innovatsion g'oyalar yetakchisi", "Oliy ta'lrim a'lochisi" ko'krak nishonlari bilan taqdilanadilar.</p>	
3.	II daraja	Hududlardagi Yoshlar akademiyasi Liderlari	<p>1. Hududlarda Yoshlar akademiyasi faoliyatini targ'ib qilish;</p> <p>2. Hududlarda Yoshlar akademiyasi liderlari faoliyatini muvofiqlashtirish;</p> <p>3. Hududlar miqyosida Yoshlar akademiyasining tanlovlari va tadbirlarini tashkil etish;</p> <p>4. Hududlarda mavjud imkoniyatlaridan kelib chiqib, Yoshlar akademiyasi faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar va kreativ takliflar ishlab chiqish;</p>	<p>1. Yoshlar akademiyasi assambleyasi a'zosi bo'ladi;</p> <p>2. Yoshlar akademiyasi tomonidan tashkil etiladigan tadbirlarda hududlar nomidan ishtiroy etadi;</p> <p>3. Xorijiy davatlarga amalga oshiriladigan xizmat safarları delegatsiyalari tarkibiga kiritiladi;</p> <p>4. Yoshlar akademiyasi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi tavfsiyasiga asosan, faoliyat davrining har 6 oyida OTM</p>	Oliy ta'lrim, fan va innovatsiyalar vazirligi hududiy boshqarmasi boshlig'i

T/r	Daraja	Yoshlar akademiyasi liderlari tizimi	Vazifalari	Imtiyozlar	Mas'ullar
			<p>5. Yoshlar akademiyasi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi bilan kelishilgan va Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining hududiy boshqarmasi boshlig'i tomonidan tasdiqlangan chora-tadbirlarni yuqori saviyada tashkil etish;</p> <p>6. Davlat rahbari, Bosh vazir, Administratsiya rahbari va vazirning hududlarga amalga oshiradigan tashriflariga yuqori saviyada tayyorgarlik ko'rish, o'z faoliyatidan kelib chiqqan holda hisobotlar va takliflar ishlab chiqish;</p> <p>7. Hududlardagi iqtidorli yoshlarning yagona reestrini shakllantirib, ma'lumotlarni doimiy yangilab borish;</p> <p>8. Hududlardagi Innovatsion tumanlar uchun iqtidorli yoshlar tomonidan takliflar va loyihalar ishlab chiqilishini ta'minlash;</p> <p>9. Hududlarda faoliyat yuritadigan Biznes vakillar va muvafaqqiyatli startapchilarni Yoshlar akademiyasiga jalb qilish;</p> <p>10. Hududlarda amalga oshirilayotgan "Bo'lajak olim" tanlovida g'olib bo'lgan loyihalarni va "Akademik harakatchanlik" dasturlari bajarilishini doimiy nazorat qilib borish;</p> <p>11. Yoshlar akademiyasining Startaplar va Biznes vakillar platformalariga shaxsan mas'ul hisoblanadi.</p>	<p>mablag'lari hisobidan bazaviy stipendiyaning 10 barobari miqdorida bir martalik moddiy rag'batlantiriladi;</p> <p>5. Xorijiy davlatlarda ilmiy va o'quv stajirovkalarini amalga oshirishga asosiy nomzod hisoblanadi;</p> <p>6. Davlat mukofotlari va nishonlariga asosiy nomzod hisoblanadi;</p> <p>7. Eng faol liderlar "Innovatsion g'oyalar yetakchisi", "Oliy ta'lim a'lochisi" ko'krak nishonlari bilan taqdilanadilar.</p>	
4.	I daraja	Yoshlar akademiyasi platformalarining liderlari	<p>1. Yoshlar akademiyasining "G'oyalar generatorlari", "Startaplar", "Biznes</p>	<p>1. Yoshlar akademiyasi assambleyasi a'zosi bo'ladi;</p>	Yoshlar akademiyasi faoliyatini

T/r	Daraja	Yoshlar akademiyasi liderlari tizimi	Vazifalari	Imtiyozlar	Mas'ullar
		<p>4 ta platformaning har biri bo'yicha 2 nafardan lider.</p> <p>1 nafardan mahalliy OTM lideri,</p> <p>1 nafardan xorijda tahsil olayotgan yoshlar</p>	<p>vakillari”, “Bo'lajak akademiklar” platformalarini targ'ib qilish;</p> <p>2. Yoshlar akademiyasining platformalari bo'yicha tanlovlari va tadbirlarini tashkil etish;</p> <p>3. Yoshlar akademiyasining platformalari mavjud imkoniyatlaridan kelib chiqib, Yoshlar akademiyasi faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar va kreativ takliflar ishlab chiqish;</p> <p>4. Yoshlar akademiyasi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi bilan kelishilgan va Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining hududiy boshqarmasi boshlig'i tomonidan tasdiqlangan chora-tadbirlarni yuqori saviyada tashkil etish;</p> <p>5. Platformalar bo'yicha loyihalar va iqtidorli yoshlarning ro'yxatini shakllantirish hamda ma'lumotlarni doimiy yangilab borish;</p> <p>6. Platformalar yo'nalishlari bo'yicha tajribali mutaxassislarni Yoshlar akademiyasiga faoliyatiga va tadbirlariga jaib qilish.</p>	<p>2. Yoshlar akademiyasi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi tavfsiyasiga asosan, faoliyat davrining har 6 oyida OTM mablag'lari hisobidan bazaviy stipendiyaning 10 barobari miqdorida bir martalik moddiy rag'batlantiriladi;</p> <p>3. Yoshlar akademiyasi tomonidan tashkil etiladigan tadbirlarda platformalar a'zolari ishtirokini ta'minlaydi;</p> <p>4. Xorijiy davlatlarga amalga oshiriladigan xizmat safarları delegatsiyalari tarkibiga kiritiladi;</p> <p>5. Xorijiy davatlarda ilmiy va o'quv stajirovkalarini amalga oshirishga nomzodligi kiritiladi;</p> <p>6. Davlat mukofotlari va nishonlariga asosiy nomzod hisoblanadi;</p> <p>7. Eng faol liderlar “Innovatsion g'oyalar yetakchisi”, “Oliy ta'lim a'lochisi” ko'krak nishonlari bilan taqdilanadilar.</p>	<p>muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i</p>
5.		<p>Yoshlar akademiyasi assambleyasi 30 nafar a'zo</p> <ul style="list-style-type: none"> - 13 nafar — Hududlardagi Yoshlar akademiyasi liderlari, - 8 nafar — Toshkent shahridagi Oliy ta'lim muassasalari Yoshlar akademiyasi liderlari, - 8 nafar — Yoshlar akademiyasi 4 ta platformasining 2 nafardan liderlari - 1 nafari — Yoshlar akademiyasi rahbari. 	<p>1. Yoshlarning ilm-fan va innovatsion faoliyat sohasidagi asosiy muammolarini aniqlash va uni yechimiga qaratilgan takliflarni ishlab chiqish;</p> <p>2. Xalqaro darajadagi Yoshlar akademiyasining tadbirlarini tashkil etish;</p> <p>3. Yoshlar akademiyasi faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar</p>	<p>1. Yoshlar akademiyasining “Bo'lajak olim” tanlovi, “Akademik harakatchanlik” dasturlar, Ilmiy stajirovkalari Komissiya va ekspertlar ishchi guruhi tarkibiga kiritiladi;</p>	<p>Yoshlar akademiyasi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i</p>

T/r	Daraja	Yoshlar akademiyasi liderlari tizimi	Vazifalari	Imtiyozlar	Mas'ullar
			<p>va kreativ takliflar ishlab chiqish va asosiy vazifalarni belgilash;</p> <p>4. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri tomonidan tasdiqlangan chora-tadbirlarni yuqori saviyada amalga oshirish;</p> <p>5. Davlat rahbari, Bosh vazir, Administratsiya rahbari va vazir ishtirokidagi yig'ilishlarga yuqori saviyada tayyorgarlik ko'rish, o'z faoliyatidan kelib chiqqan holda hisobotlar va takliflar ishlab chiqish;</p> <p>6. Respublikadagi iqtidorli yoshlarning yagona reestrini shakllantirib, ma'lumotlarni doimiy yangilab borish;</p> <p>7. "Bo'lajak olim" tanlovida g'olib bo'lgan loyihalarni va "Akademik harakatchanlik" dasturlari bajarilishini doimiy nazorat qilib borish;</p>	<p>2. Yoshlar akademiyasi nomidan xalqaro darajadagi tadbirlarda ishtirok etadi;</p> <p>3. O'qish davri mobaynida imtixonlar, xususan Bitiruv oldi malakaviy imtixonlari hamda magistrlik dissertatsiyalarini himoyalalarida Yoshlar akademiyasi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi tavfsiyasiga asosan o'rnatilgan tartibda yengillik berish inobatga olinadi;</p> <p>4. Eng faol liderlar "Innovatsion g'oyalar yetakechisi", "Oliy ta'lim a'lochisi" ko'krak nishonlari bilan taqdilanadilar.</p>	
6.	<i>Muvofiqlashtiruvchi organ</i>		Yoshlar akademiyasi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi		

*I darajadagi liderlar II va III darajadagi liderlarning vazifa va imtiyozlarini, II darajadagi liderlar III darajadagi liderlarning vazifa va imtiyozlarini ham qabul qiladi.